Zo’ravnlikdan jabrlanuvchi – o’ziga nisbatan tazyiq va zo’ravnlik sodir etilishi tahdidi ostida bo’lgan yoki tazyiq va zo’ravnlik natijasida jabrlangan ayol yoki erkak jinsidagi shaxs.

Himoya orderi – tazyiq va zo’ravnlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi, xotin-qizlarga tazyiq o’tkazayotgan yoki ularga nisbatan zo’ravnlik sodir etgan shaxsga yoxud bir guruh shaxslarga nisbatan ushbu qonunda belgilangan ta’sir ko’rsatish choralari qo’llanilishiga sabab bo’ladigan hujjat.

Tuzatish dasturi – shaxsning zo’ravnlikka moyil xulq-atvorini o’zgartirishga, unga ruhiy va ijtimoiy yordam ko’rsatishga hamda ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo’lgan tadbirlar majmuasi.

Tuzatish dasturidan o’tuvchi shaxs – xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy zo’ravnlikni sodir etgan hamda zo’ravnlik sodir etishga moyil bo’lgan shaxs.

59²-modda. Oilaviy (maishiy) zo’ravnlik [4]

Xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro’zg’or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo’lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta’lim olish, sog’liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqni amalga oshirishga to’sqinlik qilish, mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek ushbu shaxslar sog’lig’ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo’rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo’yish, basharti jinoyat alomatlari, shuningdek ushbu kodeksda nazarda tutilgan boshqa huquqbuzarliklar alomatlari mavjud bo’lmasa, bazaviy hisoblash miqdorining o’n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o’n sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo’ladi.

Xotinini (erini), sobiq xotinini (sobiq erini), bir ro’zg’or asosida birgalikda yashayotgan shaxsni yoki umumiy farzandga ega bo’lgan shaxsni do’pposlash, ushbu shaxslarga sog’liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo’lmagan muddatga yo’qolishiga olib kelmagan qasddan badaniga yengil shikast yetkazish, -

bazaviy hisoblash miqdorining o’n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o’n besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo’ladi.

2024-yilning 11 oyi davomida oilaviy zo’ravnlik sodir etgan 2 734 nafar shaxslarga nisbatan MJtKning 59²-moddasi bo’yicha ma’muriy bayonnomalar rasmiylashtirilgan.

126¹-modda. Oilaviy (maishiy) zo’ravnlik [5]

Ya'ni, Xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek ushbu shaxslar sog'lig'ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo'rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo'yish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, shuningdek basharti boshqa jinoyat alomatlari mavjud bo'lmasligi.

Sodir etilgan tan jarohati bilan bog'liq jinoyatlarning 27 foizi (420 ta) yoki har 4 tasidan bittasi oila-turmush doirasida sodir etilgan.

Oila-turmush doirasida:

- 189 ta maishiy (oilaviy) zo'ravonlik (JK 126¹-modda),
- 10 ta qotillik (JK 97-modda),
- 25 ta qasddan badaniga og'ir shikast yetkazish (JK 104-modda),
- 86 ta qasddan badaniga o'rta darajadagi shikast yetkazish (JK 105-modda),
- 110 ta qasddan badaniga yengil shikast yetkazish (JK 109-modda) jinoyatlari sodir etilgan.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda eng ko'p oila-turmush doirasidagi jinoyatlar Farg'ona (64 ta), Qo'qon (42 ta), Marg'ilon (29 ta) shaharlari va Oltiariq (40 ta) tumani hissasiga to'g'ri keladi.

Oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan jinoyatlarning 6 tasi mol-mulk talashish oqibatida, 321 tasi murossasiz kelishmovchilik oqibatida va 93 tasi boshqa sabablarga ko'ra sodir etilgan.

Oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan jinoyatlarning 194 tasi eri tomonidan xotiniga, 2 tasi xotini tomonidan eriga, 23 tasi akasi yoki ukasiga va 201 tasi boshqa qarindoshiga nisbatan sodir etilgan jinoyatlarni tashkil etadi.

Mazkur jinoyatlarning 374 tasi xonadonlarda, 1 tasi yotoqxonada, 11 tasi jamoat joyida va 34 tasi boshqa joylarda sodir etilgan.

Oilaviy zo'ravonlik jinoyatining kriminologik tavsifi o'ziga xos ravishda murakkabdir. Zo'ravonlikning kriminologik tavsifi, sababi, shart-sharoitlari, tabiati, ijtimoiyligi va belgilariga oid kriminologik adabiyotlarda turlicha tushunchalar berilgan.

Bir qator ilmiy va huquqiy adabiyotlarni tahlil etish hamda umumlashtirish shuni ko'rsatmoqdaki, fandagi "zo'rlik" va "zo'ravonlik" tushunchalari bo'yicha yagona ta'rif hali ham mavjud emas.

Biroq, bir qator kriminolog olimlar o'z ta'riflarini berib o'tganlar. Zo'rlik – bu jabrlanuvchi xavfsizligiga qasddan, qonunga xilof ravishda jinoiy tajovuz qilish, uning organizmiga (organlari, to'qimalari va ularning fiziologik funksiyalari) irodasi yoki roziligisiz (yoki undan tashqari) jismoniy (energetik) yoki ruhiy (informatsion) ta'sir o'tkazish orqali jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazishdir [8; 42].

Bizningcha, zo'ravonlik jismoniy kuch yoki qo'rqitish bilan amalga oshiriladigan jinoiy faoliyatdir. Bunda shaxsning sog'lig'i va hayotiga tahdid qilish orqali uning huquqlari va erkinliklari poymol etiladi. Mazkur holatda ta'sir etish deganda, jabrlanuvchiga uning xohishiga qarshi amalga oshiriladigan va unga aniq jismoniy yoki ruhiy azob beradigan, ya'ni zo'ravonlik hisoblanadigan ta'sir tushuniladi.

Zoʻravonlik oqibatida shaxsning badaniga ozgina ogʻriq yetkazadigan va hatto yoqimsiz his uygʻotadigan har qanday oʻzgarish ham zoʻravonlik deb atalishi mumkin. Zoʻravonlik faqat tananing daxlsizligini buzish emas, balki shaxsga nisbatan amalga oshirilgan har qanday salbiy xatti-harakatni ham oʻz ichiga oladi. Masalan, shaxs ustidan kulish, tuhmat qilish, haqorat qilish – shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini poymol qilish bilan birga, unga nisbatan ruhiy zoʻravonlik hisoblanadi.

Oiladagi zoʻravonlikning quyidagi turlari mavjud [10; – B. 1]:

Zoʻrlik tushunchasini jinoyat-huquqiy va kriminologik nuqtai nazardan tushunishdagi yana bir muammo – uning shakllari bilan bogʻliqdir. Maʼlumki, anʼanaviy tarzda zoʻravonlik jismoniy va ruhiy zoʻravonlik kabi shakllarga ajratiladi. Biroq, ayrim adabiyotlarda zoʻravonlik ushbu ikki shakldan tashqari, jinsiy zoʻravonlik ham alohida koʻrsatiladi.

Jinsiy zoʻravonlik – xotin-qizlarga nisbatan ularning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zoʻravonlik shakli. Shu jumladan, zoʻrlik ishlatish yoki zoʻrlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash.

Jismoniy zoʻravonlik – xotin-qizlarga nisbatan ogʻirligi turlicha boʻlgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam koʻrsatmaslik, zoʻravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish. Jismoniy taʼsir oʻtkazish yoki bunday taʼsir oʻtkazishning boshqa choralarini qoʻllash bilan tahdid qilish orqali xotin-qizlarning hayoti, sogʻligʻi, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zoʻravonlik shakli.

Zoʻravonlik – xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy taʼsir oʻtkazish yoki bunday taʼsir oʻtkazish choralarini qoʻllash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sogʻligʻi, jinsiy daxlsizligi, shaʼni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan gʻayrihuquqiy harakat (harakatsizlik).

Iqtisodiy zoʻravonlik – xotin-qizlarga nisbatan turmushda, ish joylarida va boshqa jamoat joylarida amalga oshirilgan zoʻravonlik shakli boʻlib, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topishi uchun zarur boʻlgan oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa sharoitlar bilan taʼminlanish huquqini, mulk huquqini, taʼlim olish hamda mehnatga oid huquqlarini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik).

Ish joyi – oʻzi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq mehnat majburiyatlarini amalga oshirish yoki xizmat vazifalarini bajarish uchun boʻlishi yoki borishi lozim boʻlgan, ish beruvchi tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat qilinadigan joy.

Ruhiy zoʻravonlik – xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning shaʼnini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zoʻravonlik shakli. Shu jumladan, reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zoʻravonlikdan jabrlanuvchida oʻz xavfsizligi uchun xavotir uygʻotgan, oʻzini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sogʻligʻiga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik).

Tazyiq – sodir etilganligi uchun maʼmuriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, xotin-qizlarning shaʼni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakatsizlik), shilqimlik, taʼqib etish.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi – o‘ziga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etilishi tahdidi ostida bo‘lgan yoki tazyiq va zo‘ravonlik natijasida jabrlangan ayol jinsidagi shaxs.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish – xotin-qizlarning hayoti, sog‘lig‘i uchun paydo bo‘lgan xavfni bartaraf etish, tezkor chora-tadbirlarni talab qiladigan hayotiy vaziyatlar yuz berganda xotin-qizlarning xavfsizligini ta‘minlash, shuningdek jabrlanuvchiga nisbatan tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsning takroran noqonuniy xatti-harakatlariga yo‘l qo‘ymaslik maqsadidagi iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, psixologik va boshqa turdagi kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlar tizimi.

Tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish – xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etishga olib keladigan sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etishga, jamiyatda xotin-qizlarning zo‘ravonlikdan xoli bo‘lish huquqlaridan xabardorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi.

Ta‘qib etish – jabrlanuvchining xohish-irodasiga qarshi, uning ikki yoki undan ortiq marta qarshilik ko‘rsatganligiga yoki ogohlantirganligiga qaramay sodir etiladigan, jabrlanuvchini qidirishda, u bilan og‘zaki, telekommunikatsiya tarmoqlari vositasida, shu jumladan internet jahon axborot tarmog‘i orqali yoki boshqa usullardan foydalanish yo‘li bilan muloqotga kirishishda, uning ish, o‘qish va (yoki) yashash joyiga borishda ifodalangan hamda jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotirlik uyg‘otadigan harakatlar.

Himoya orderi – tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi, xotin-qizlarga tazyiq o‘tkazayotgan yoki ularga nisbatan zo‘ravonlik sodir etgan shaxsga yoxud bir guruh shaxslarga nisbatan ushbu qonunda belgilangan ta‘sir ko‘rsatish choralari qo‘llashga sabab bo‘ladigan hujjat.

Oilaviy zo‘ravonlik jinoyatining sodir etilish sabablari va o‘ziga xos xususiyatlari;

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-401-sonli qarori ijrosini ta‘minlash yuzasidan viloyatda oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilayotgan jinoyatlarning barvaqt oldini olish bo‘yicha viloyat hokimining 2023-yil 25-dekabrda 626-01-50-sonli “Farg‘ona viloyatida “Xavfsiz oila” tamoyili asosida hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi”da belgilangan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan biri etib belgilangan.

O‘tgan davr mobaynida Farg‘ona viloyati tajribasi misolida oila-turmush doirasida jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha “Xavfsiz oila” tamoyili asosida ish tizimi yo‘lga qo‘yilib, bir qator profilaktik tadbirlar amalga oshirildi.

Mazkur dastur asosida viloyatda mavjud 1 milliondan ortiq oila toifalarga ajratilib, asosan qizil va sariq toifadagi oilalarga alohida e‘tibor qaratgan holda ish tartibi belgilandi.

Oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarlik yoki jinoyatni oldini olish maqsadida himoya orderi berish yo‘lga qo‘yilib, joriy yilning 12 oyi davomida 4 397 (2 293) nafar tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarga belgilangan muddatlarga himoya orderi berilib, sodir etilishi mumkin bo‘lgan oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlarning barvaqt oldini olishga erishildi.

Jumladan, Farg‘ona shahar 130(125) ta, Qo‘qon shahar 371(279) ta, Marg‘ilon shahar 103(95) ta, Quvasoy shahar 93(81) ta, Oltiariq tumani 288(127) ta, Qo‘sh tepa tumani 182(119)

ta, Beshariq tumani 194(147) ta, Kuva tumani 205(140) ta, Uchko'prik tumani 150(72) ta, O'zbekiston tumani 264(134) ta, Farg'ona tumani 154(143) ta, Bag'dod tumani 194(144) ta, Rishton tumani 228(160) ta, Dang'ara tumani 264(140) ta, Toshloq tumani 209(115) ta, Buvayda tumani 1 107(155) ta, Yozyovon tumani 125(72) ta, So'x tumani 33(24) ta, Furqat tumani 103(21) ta himoya orderlari rasmiylashtirilgan.

Himoyaga olingan ayollarning yoshi bo'yicha tahlil etilganda, 31 nafari voyaga yetmagan qizlar, 1 063 nafari 30 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlar, hamda 3 303 nafari 31 yoshdan yuqori bo'lgan ayollar tashkil etgan.

Tazyiq va zo'ravonlik sodir etilgan joyi bo'yicha tahlil etilganda:

- 3 939 ta holatda oilada,
- 371 ta holatda ko'chada,
- 64 ta holatda jamoat joyida,
- 6 ta holatda ta'lim muassasasida,
- 17 ta holatda ish joyida sodir etilganligi aniqlangan.

Olib borilgan tadbirlar davomida berilgan himoya orderlari jabrlangan 3 052 nafar ayolni turmush o'rtog'idan, 113 nafarini kelinidan himoya qilish uchun qaynonasiga, 156 nafarini qaynonasidan himoya qilish uchun kelinlarga, hamda 1 076 nafari boshqa shaxslardan himoya qilish maqsadida berilgan.

Tazyiq va zo'ravonlikning turlari bo'yicha tahlil etilganda:

- 574 tasi jismoniy zo'ravonlik,
- 15 tasi iqtisodiy zo'ravonlik,
- 1076 tasi ruhiy zo'ravonlik,
- 2730 tasi tazyiq,
- 1 ta jinsiy zo'ravonlik,
- 1 ta ta'qib etish holatlari tashkil etgan.

Oilada nizo bartaraf etilmaganligi bois 91 ta holatda himoya orderi takroran berilgan. Himoya orderini olishdan bosh tortgan holatlar 5 tani tashkil etgan bo'lib, bosh tortgan bo'lishiga qaramasdan ushbu ayollar ham nazoratga olingan. Zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning barchasiga jami 4 397 ta turli xil cheklovlar qo'llanilgan bo'lib, ularning 905 nafari alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lganligi sababli tuzatish dasturidan o'tkazilib, yakka tartibdagi profilaktik ishlar olib borilmoqda.

Viloyat bo'yicha 244 nafar himoya orderi cheklovlariga rioya qilmagan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi MJtKning 206¹-moddasiga asosan jazolanish muqarrarlari ta'minlandi (24 tasi XQMB katta inspektorlari tomonidan aniqlangan).

Himoya orderi berilishi natijasida:

- 941 ta oila yarashtirildi,
- 3 204 ta oiladagi nizo bartaraf etildi,
- 96 ta ajrashgan oila va yillar davomida davom etib kelayotgan nizolar 156 tani tashkil etadi.

Ayollarimiz tomonidan oila-turmush doirasida himoya orderini "himoyalovchi qurol" sifatida noto'g'ri foydalanilishiga yo'l qo'ymaslik uchun holat atroflicha baholanib, shundan so'ng qat'iy qaror qabul qilinmoqda. Shu sababli 5 ta holatda himoya orderi so'rab murojaat qilgan ayollarning arizasi zo'ravonlik holati mavjud emasligi sababli rad etildi.

Viloyatda oila-turmush doirasidagi jinoyatlarni barvaqt oldini olish, oilalarda ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, nizolashayotgan va notinch oilalar bilan ishlash, hamda o'zining mehnati, farzandlar tarbiyasi bilan o'rnak bo'layotgan oilalarni namuna qilib ko'rsatish orqali tarbiyaviy-psixologik profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida joriy yilning 30-aprel kuni viloyatda "Ahil oila" tarbiyaviy profilaktik tadbirlarini amalga oshirish to'g'risida"gi 39-sonli farmoyish imzolandi va huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasida yo'nalishlar bo'yicha ishchi guruh tashkil qilindi.

Farmoyish ijrosini ta'minlash maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasi yo'nalishida alohida toifaga kiruvchi 10 ta toifadagi jami 27 787 nafar shaxslarning ro'yxatlari yangidan shakllantirildi.

Ma'lumot uchun: Oilaviy zo'ravonlik huquqbuzarligini sodir etganlar; himoya orderi berilgan oilalar; fuqarolik sudlarida nizolashayotgan oilalar; giyohvandlar yashayotgan oilalar; spirtli ichimliklarga ruju qo'ygan shaxslar yashayotgan oilalar; G'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega yoshlar va xotin-qizlar yashayotgan oilalar; tajovuzkor ruhiy kasallar yashayotgan oilalar; noqonuniy nikoh asosida yashayotgan oilalar; aliment bilan bog'liq muammoli munosabatdagi oilalar; majburiy uyga kiritish bilan bog'liq muammoli oilalar.

"Ahil oila" maxsus profilaktik tadbiri davomida jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan xotin-qizlar bilan 3 340 marotaba uchrashuvlar o'tkazildi, 1 746 marotaba targ'ibot tadbirlari tashkil etildi.

Xotin-qizlar o'rtasida jinoyatlarning oldini olish maqsadida 6 005 ta oila o'rganilib, ayollarda aniqlangan 1 406 ta muammolarning 566 tasi yoki 40 foizi bartaraf etildi. Oilalarni o'rganish davomida 5 642 marotaba profilaktik suhbatlar o'tkazildi. Shuningdek, joriy yilning 12 oyi davomida viloyatda oilaviy zo'ravonlik jinoyatlarining kamayishiga o'tkazilgan profilaktik tadbirlar natijasida erishildi.

1999-yil 25-noyabr kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Xalqaro ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish kuni munosabati bilan hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-iyundagi "Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarga va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 354-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida joriy yilning 25-noyabrdan 10-dekabrga qadar "Zo'ravonlikka qarshi 16 kunlik" shiori ostida turkum tadbirlarni o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi, ishchi guruh tarkibi hamda shtab tashkil etildi, chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.

25-noyabr kuni viloyat Ijtimoiy himoya milliy agentligi boshqarmasi kichik majlislar zalida "Tazyiq va zo'ravonlikka qarshi 16 kun" turkum tadbirlariga ZOOM orqali start berildi. Viloyat studiyasida tadbirni o'tkazish ishchi guruhi a'zolari Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi, viloyat ayollar rehabilitatsiya markazi, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi, Adliya, prokuratura, viloyat ichki ishlar, sog'liqni saqlash, maktab va maktabgacha ta'lim boshqarmasi, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari, ommaviy axborot vositalari ishtirok etdilar.

Onlayn tarzda shahar va tumanlarning shu soha vakillari qatnashib, dolzarb 16 kunlik turkum tadbirlarning mazmun-mohiyati va uni o'tkazish tartibi bo'yicha kelishib olindi. Ishtirokchilarga viloyat ishchi guruhi tarkibi o'qib eshittirildi. Chora-tadbirlar rejasi tarqatildi.

16 kunlik chora-tadbirlar dasturi doirasida o'tkazilgan turkum tadbirlar 4 bosqichda amalga oshirildi:

1. Birinchi bosqich – “Soflom oila – yurt kelajagi” shiori ostida,
2. Ikkinchi bosqich – “Baxtli bolalik” shiori ostida,
3. Uchinchi bosqich – “Baxt bering ayolga, mehr bering” shiori ostida,
4. To‘rtinchi bosqich – “Zo‘ravonlikka barham berish” shiori ostida.

Barcha bosqichlarda ona va farzandlarning salomatligi, ularning ruhiy holatini yaxshilash, bolaning ruhiy va tarbiyaviy masalalariga e‘tibor qaratish, xotin-qizlarning huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, zo‘ravonlik sodir etgan yoki zo‘ravonlikka moyilligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlash, jamiyatda zo‘ravonlikka murosasiz munosabatni shakllantirish kabi muhim yo‘nalishlarga alohida e‘tibor qaratildi.

Jumladan, jami 2 046 marotaba tadbirlar o‘tkazilib, shundan:

- Mahallalarda – 1 017 marotaba,
- Ta‘lim muassasalarida – 806 marotaba,
- Korxona va tashkilotlarda – 223 marotaba tadbirlar tashkil etildi.

Bu tadbirlarga 85 932 nafar aholi qamrab olindi. 19 ta shahar va tumanga turkum tadbirlar doirasida jami 4 800 tadan ziyod tarqatma materiallar tarqatildi.

Tadbirlarda 134 ta ijtimoiy rolik namoyish etildi.

3 607 nafar xotin-qiz tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi va 2 877 nafariga tibbiy yordam ko‘rsatildi.

Bundan tashqari, 74 ta sayyor qabullar o‘tkazilib, 353 nafar xotin-qizlarning murojaatlari o‘rganildi, 289 nafarining murojaatlari ijobiy hal qilindi, qolganlariga huquqiy maslahatlar berildi. 16 kunlik turkum tadbirlarni yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon, Quvasoy, Dang‘ara, Farg‘ona shaharlarida markaziy ko‘chalarning aholi gavjum hududlariga katta bannerlar o‘rnatildi.

Oila va xotin-qizlar boshqarmasi va Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlariga murojaat qilgan, “Ayollar daftari”ga olingan xotin-qizlar hamda mahallalardagi notinch oilalarga murabbiylar biriktirildi. Notinch oilalarning xonadonlariga kirib borish orqali oiladagi muammolarni o‘rganish va aniqlangan muammolarni bartaraf etish choralarini ko‘rish maqsadida nizoli oilalarning farzandlari bilan ota-onasi ishtirokida hamda individual suhbatlar olib borildi. Jiddiy sababga ega bo‘lmagan oilalar bilan yarashtirish ishlari olib borildi.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlardan kelib chiqib, oiladagi zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlik muqarrarligini ta‘minlash hamda uning oldini olish yuzasidan huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligini oshirish, “102 tezkor chaqiruv xizmati” faoliyatini takomillashtirish, jumladan, chaqiruvning alternativ variantlarini qo‘llash, xorijiy tajriba sifatida “qo‘shni nazorati” tizimini joriy etish, oilada zo‘ravonlik sodir etuvchi shaxslarning kriminologik kartotekasi va portretini shakllantirish, oiladagi faol ko‘maklashayotgan aholi vakillarini moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish, Bola huquqlari bo‘yicha vakilning qonuniy faoliyatiga to‘sqinlik qilganlik uchun ma‘muriy javobgarlik belgilash hamda mazkur yo‘nalishda jinoiy va boshqa sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan dolzarbdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. BMTning 1989-yil 20-noyabrdagi Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi – 1989-yil.
2. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi 561-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 3-moddasi – 2019-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi (MJtK) – 1994 yil.

4. “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni – 2023-yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 2023-yil.
6. Niyozova S.S. “Shaxsga qarshi zo‘rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning viktimologik nazariyasi” (Monografiya) – T: TDYuI, 2011 – B.22.
7. M.X. Rustambayev “Jinoyat huquqi: Maxsus qism” – T: TDYuI, 2006. – B.42.
8. Takhirov F. “Ayrim xorijiy mamlakatlarda jinsiy jinoyatlar uchun javobgarlik” / Mas’ul muharrir y.f.d, prof. M.H. Rustambayev, – T: TDYu, – B.95-96.
9. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi 561-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 3-moddasi – 2019 yil – B.1.
10. LEX.UZ

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).